

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida .....	247
<b>S.Z.Yo'Idoshev</b>	
Sport faoliyati yo'naliishi talabalariga valeologiya fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari .....	251
<b>I.O.Umarov</b>	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning ta'lim texnologiyasi .....	256
<b>Sh.M.Bazarbayeva</b>	
Yettisuv viloyatida o'lat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
<b>O.X.Mahamadjonova</b>	
Bolalar folkloriga oid o'n ikki cho'p va lapar o'yinlari tavsifi va ta'rifiga doir .....	268
<b>G.A.Donisheva</b>	
Tarixiy jihatdan til leksikasining o'rganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida) .....	273
<b>L.A.Xaitov</b>	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhiy uzviyiligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi .....	276
<b>Sh.S.Kodirova</b>	
Teaching English language to geology students .....	280
<b>S.S.Xojiyeva</b>	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish .....	283
<b>F.I.Sharipova</b>	
Developing reading comprehension at future nurses .....	288
<b>U.B.Usmonova</b>	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi .....	294
<b>K.X.Авазов</b>	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе .....	297
<b>A.N.Qosimov</b>	
Sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur-iftixon tuyg'usini shakllantirishning pedagogik zarurati .....	303
<b>A.T.Nishonov</b>	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari .....	310
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamlari texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtaсидagi aloqadorlik muammolari .....	314
<b>U.D.Xudoyorov</b>	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlari.....	318
<b>S.U.Allayarov</b>	
O'quvchilar lug'at boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
<b>Ch.T.Qurbanova</b>	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
<b>Z.A.Kendjaeva</b>	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosobat.....	333
<b>L.S.Sultonova</b>	
Milliy qadriyatlarning innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish .....	338
<b>Sh.T.Temirov</b>	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni.....	341
<b>S.X.Kaxxarov</b>	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili.....	346
<b>A.R.Jo'rayev</b>	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi .....	351
<b>M.C.Мухамедова</b>	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
<b>G.J.Tulenova</b>	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



УО'К: 398.22(091)

## BOLALAR FOLKLORIGA OID O'N IKKI CHO'R VA LAPAR O'YINLARI TAVSIFI VA TA'RIFIGA DOIR

### ДЕТСКИЕ ФОЛЬКЛОРНЫЕ ИГРЫ С ДВЕНАДЦАТЬ ПАЛОЧКАМИ И ЛАПАРАМИ С ОПИСАНИЕМ И ОПРЕДЕЛЕНИЯМИ

### DESCRIPTIONS AND DEFINITIONS OF TWELVE STICK AND LAPAR GAMES ON CHILDREN'S FOLKLORE

**Mahamadjonova Odinaxon Xamidullo qizi**

Andijon davlat universiteti, Folklorshunoslik yo'nalishi doktoranti

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada bolalar o'tasida tobora yo'qolib borayotgan bir nechta o'yinlar haqida ma'lumotlar berilgan. Ularning tavsifi va ta'rifini o'rganib qayta tiklash asosiy maqsad qilib olindi. Qiyosiy-tarixiy metodga tayangan holda, material yig'ish, kuzatish va suhbatalashish asnosida ma'lumotlar o'rganildi. Natijada ularning nomlanishi, kelib chiqish tarixiga oid ma'lumotlarga oydinlik kiritildi. Ushbu o'yinlarning o'ynalish tartibi, shartlari va asosiy maqsad va vazifalariga alohida e'tibor berildi. Xalq o'yinlari bolalarni har jihatdan hayotga tayyorlaydi. O'yin davomida ularning ko'z, qulqoq, sezish, eshitish sezgilarini o'tkirlashadi. Aqlyi jihatdan hisob kitobga o'rgatib, to'g'ri mo'ljal olish, chama, reja olish qobiliyatlarini oshiradi. Ko'pchilik bilan muomala qilish qobiliyatlarini shakllantiradi degan xulosa kelib chiqdi.*

#### *Аннотация*

*В данной статье представлена информация о нескольких играх, которые все чаще исчезают среди детей. Основной целью было изучить и восстановить их описание и определение. Опираясь на сравнительно-исторический метод, данные изучались в ходе сбора материала, наблюдения и интервью. В результате были уточнены сведения об их наименовании и истории происхождения. Особое внимание было уделено порядку, условиям и основным целям и задачам этих игр. Народные игры готовят детей к жизни во всех аспектах. Во время игры у них обостряются глаза, уши, осязание и слух. На умственном уровне это увеличивает способность ставить правильную цель, планировать и планировать, обучая этому книге. Сделан вывод, что это формирует умение общаться со многими людьми.*

#### *Abstract*

*This article provides information about several games that are increasingly disappearing among children. The main goal was to study and restore their description and definition. Relying on the comparative-historical method, data was studied during material collection, observation and interview. As a result, information about their naming and history of origin was clarified. Special attention was paid to the procedure, conditions and main goals and objectives of these games. Folk games prepare children for life in all aspects. During the game, their eyes, ears, sense of touch and hearing are sharpened. Mentally, it increases the ability to get the right target, plan, and plan by teaching it to the book. It was concluded that it forms the ability to deal with many people.*

**Kalit so'zlar:** chillak, dandarak, lapar, qamchi, dasta, "zuvillama", kayvoni, jo'raboshi.

**Ключевые слова:** чиллак, дандарак, лапар, хамчи, даста, «зувиллама», кайвани, джорабоши.

**Key words:** chillak, dandarak, lapar, khamchi, dasta, "zuvillama", kayvani, joraboshi.

#### **KIRISH**

An'anaviy bolalar o'yinlari tobora unutilib, yo'qolib yoki o'zgarib ketayotganligi ko'p ta'kidlanadi. Lekin ularning qanday o'zgarishlarga duchor bo'lganligi haqidagi tadqiqotlar yetarli emas. Shunindek o'yinlarning nomlari bo'yicha etimologik tahlil qilish va nima sababdan bir turdag'i o'yinga ikki xil nom berilganligi sabablarini o'rganish lozim. Bu kamchiliklar tufayli bolalar o'yinlarinin tarixiy rivojlanishini ko'rish imkoniyati yo'qoladi. Bolalar folkloriga xususan, o'yin folkloriga oid ma'lumotlarni jamlash, tasniflash va yakunlash lozim. Bolalar o'yinlari o'ziga xos bir asar deyish mumkin. Ularni turli soha vakillarini o'ziga xos va mos tarzda tahlil qiladilar. Folklorshunoslar bu o'yinlarga fokloriy hodisa sifatida qaraydilar. Ya'niki, ulardagi kompozitsiya, syujet turlari, motiv elementlari tahlil qilinadi. Bolalar o'yinlari ham muayyan ijodiy yo'nalishga ega

## ILMIY AXBOROT

bo'lib, o'z ma'nosi va maqsadi bor. O'yinlarni boshlashdan oldin o'yinga chaqiriladi. O'yinni boshlash uchun esa qur'a tashlanadi. Muayyan guruhlarga ajratilib, qonun-qoidalar bilan tanishtiriladi. Bolalar o'ynayotgan har bir narsa yog'ochmi, cho'pmi, loymi, toshmi ularning har biri itimoiy tafakkur rivojida ayricha ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

"Chillak" o'yini va uning tavsifi haqida bir nechta folklorshunoslar ayrim fikrlarni taqdim qilishgan. Xususan, Sh.Galiyev "Akkol"[7] o'yinini yilning har faslida o'ynaluvchi o'yinlar sirasida sanab o'tib ketadi. O.Safarov ushbu o'yinni chillak "akkol" atamasi bilan ta'riflaydi [3]. Tadqiqotchi Sh.Turg'unov esa "chikkildak" atamasi bilan yashinmachoq tipidagi bolalar o'yini sifatida tahlil qiladi [4]. Turk bolalar folklorida "Qumqo'rg'on" o'yini haqida ma'lumotlar berilib, "Chellik" va "Chulluk" deb nomlanuvchi uzun va qisqa tayoqlar bilan o'nalishi haqidagi ma'lumotlar beriladi [14]. Andijon bolalar folklori tarkibida "O'n ikki cho'p" o'yini ham yuqoridagi o'ynlarga o'xshash holda o'ynaladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarda "chillak" o'yinining turli xil nomlanishiga guvoh bo'lamiz. Lekin yuqoridagi o'zgachaliliklarga oydinlik kiritilmagan. Nomning kelib chiqishi tarixiga nazar solinmagan. Shuningdek, ma'lumotlarning yozib olingan sanalari mavhumligicha qolgan. O'yinning qaysi mavsumda o'nalishi haqidagi ma'lumotlar to'laligicha berilmagan. Shuningdek, boshqa davlatlarda shu va shunga o'xshash o'yinlar bilan qiyosan tahlilga tortilmagan. Yuqoridagi barcha ma'lumotlarni jamlash, bir butun holga keltirish asosida yakuniy xulosaga kelish zarur.

Agar o'yinlar og'zaki badiiy ijod na'munasi adabiy hodisa sifatida qaralsa, ular obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va kompozitsiyasi, maqsadi va estetik vazifalari jihatidan shartli ravishda uch turga mansubdir:

- a) qahramonlik ruhidagi o'yinlar;
- b) hayvonlar haqidagi o'yinlar;
- c) maishiy o'yinlar. [1]

Qahramonlik ruhi bolalar o'yinlariga singib ketishi doston, ertaklar ta'sirida kirib kelgan deyish mumkin. Qahramonlik ruhi bolalar uchun zarur bo'lgan xislatlardan biri. Bolalar o'yinlari tarkibida qahramonlik ruhidagi o'yinlar salmoqli o'ren egallaydi. Qahramonlik mutlaq g'olib bo'lish bilan belgilanadi. Unda ishtirokchining turli sinovlardan chaqqonlik, ziyraklik sifatlari, topqirligi, botirligi, aql-idroki sinovdan o'tkaziladi. Qahramon turli xil qiyinchiliklarga duch kelishi bilan o'yin qiziqarli tus oladi. Sinov motivi ushbu turdag'i o'yinlarda asosiy motiv hisoblanadi. Qahramonni ideallashtirish, uni turli sinovlarga duchor qilish xalq an'anaviy poetik asarlariga xos motiv hisoblanadi. Davrlar o'tishi bilan ushbu motiv xalq o'yinlariga ko'chib o'tdi. Andijon bolalar o'yinlari tarkibida ham qahramonlik ruhidagi o'yinlarning soni ko'pligiga guvoh bo'lamiz.

Chillak o'yini qahramonlik ruhidagi o'yin hisoblanib, qishloq bolalarining sevimli o'yinlaridan biri hisoblanadi. Bolalar poda boqganda yoki chillak (akkol) o'ynaganda toldan tayoq yoki chillaksasta (akkoldasta) yo'nmoqchi bulib, biror shoxasini kesib oladilar, G'ijduvon rayonidagi Javgari qishlog'ida yashovchi bolalar tayoq yoki chillakdasta yo'nish paytida shoxani kaftlari sig'imida o'lchab turib shunday deydilar:

Tol tayoq,  
Tolmon tayoq.  
Yuz ming qo'yni  
Boqqan tayoq.  
Bir ilonni -  
O'ldirib,  
Yerga boshin  
Eggan tayoq.

Tayoqning har siqimi o'lchovida bir so'z, chillakdastada esa bir satr aytilmog'i shart xisoblangan. Ammo "Bir ilonni o'ldirib" misrasi aytilgach, qolgan qismi xosiyatsiz sanalib, "Yerga boshin yegan tayoq" satri aytishiga baravar kesib tashlangan[3]. Ayniqsa chekka hududlarda istiqomat qiluvchi bolalar ushbu o'yinni yilning to'rt faslida o'ynashlari mumkin. Dala –dashtlarda, ko'chalarda, hovlilarda o'ynayotgan Andijonlik bolalar ham ushbu o'yinni o'ynaydilar. Chunki o'yin uchun maxsus joy yoki biror bir asbob kerak bo'lmaydi. Ikkita uchi yo'nilgan tayoq va chillakni urib "uchirish" uchun dasta kerak bo'ladi. Chillak dastasini tayyorlash juda oson.

Chillak o'yinini o'ynash uchun eng kamida ikki kishi yetarli bo'ladi. Guruh-guruh bo'lib o'ynash juda ham qiziqarli bo'lgan. O'yinning o'ziga xos kompozitsion tuzlishi mavjud. O'yin boshlanishidan oldin kayvoni (o'yinboshi) qur'a tashlaydi. Masalan, tanganing qaysi tomoni yerga tushishi o'yinni qaysi guruh boshlashishi aniqlanadi. O'yin boshlovchi guruh maxsus chuqurchaga chillakni qo'yadilar. Har bir guruhnинг o'z jo'raboshi o'yinni boshlaydi va chillakni dasta bilan ilib yuqoriga otadi so'ng, qaytib tushayotgan chillakni zarb bilan uradi, imkonli boricha uzoqqa otishga harakat qiladi.

O'yin o'ynalayotgan maydonning narigi tomonida turgan raqib jamoa, uchib kelayotgan chillakni tutib qolishga harakat qiladi. Chillakni tutib qolsa, o'yin navbatli o'sha zahotiyoyq raqib jamoaga o'tadi. Raqib ilib ololmasa, o'yin shu guruhda davom etadi. O'yinni davom ettirish uchun esa chillakni o'z joyiga, ya'ni chuqurchaga qaytarib tushirish lozim. Joyiga tushsa-ku, olam guliston. Chuqurchadan bir dasta uzoqlikka tushsa-ku, mayli. Besh-o'n dasta uzoqqa tushsa o'yin jarayoni yanada qiziqarli tus oladi. Endi o'yinga sinov motivi kirib keladi. Sinov motivi ushbu o'yin kompozitsiyasidagi kuliminatsion nuqta deb aytishimiz mumkin. Chillakni otgan yohud boshqa o'yin o'ynayotgan bola ,o'yinboshi bilan , ya'ni nazoratida "zuvullash" sharti bajarilgan. "Zum-zum" o'yini chillak o'yinining bir ko'rinishi hisoblanadi [3]. "Zuvillatar" o'yini predmetli o'yinlar sirasiga mansub bo'lib, unda asosiy predmet tayoq hisoblanadi [10]. sBir nafas bilan marraga yetib kelishi lozim. Yetib bormay nafas olib yuborsamasligi lozim. Ko'p hollarda ,bir nafasda alifbo harflari yoxud tez aytish mashqlari bajarilgan. Yutqazib qo'yan jamoa vakillari narigi guruh vakillarini orqasiga ortmoqlab,marraga olib kelib qo'yishlari kerak bo'ladi. Shu yo'sinda o'yin kechgacha davom etaveradi.

Namangan viloyatida keng tarqalgan bekinmachoq tipidagi "Chikkildak" deb nomlanuvchi o'yinda, o'yin ishtirokchilaridan biri avvaldan tayyorlab qo'yilgan ,ustiga cho'plar joylashtirilgan g'isht yoki shunday hajmdagi tosh ustiga qo'yilgan ayri yog'ochni zorb bilan tepadi. Navbatchi bola sochilib ketgan cho'plarni terib joyiga qo'yguncha ,qolgan ishtirokchilar o'yin maydoni atrofidagi ovloqroq joylarga yashirinib oladilar. O'yin shartiga ko'ra bolalar berkinayotgan vaqtida navbatchi bola cho'plarni oxirigacha terib bo'Imagunga qadar ularga qaramasligi lozim[4]. Bu turdag'i o'yin andijon bolalar folklorida ham mavjud bo'lib, "O'n ikki cho'p" deb nomlanadi. Navbatchi bola cho'plarni joyiga qo'yib bo'lib ,berkingan bolalarni topgani ketgan paytda, yashiringan bolalardan biri chiqib cho'plarni sochib yuborsa, o'yin yana shu navbatchida qoladi. O'yin shu tarzda qiziqarli tus oladi.

Materiallarni yig'ish davomida statistik va qiyosiy tahlilga tayaniladi. Ushbu tahlilning afzallik tomoni ma'lumotlarning tizimli ekanligi deb aytish mumkin. Kamchiligi esa tabiiy kuzatuvning yo'qligidir. Intervyu olish orqali materiallar yig'ish davomida ,ma'lumot beruvchiga savol berib javob olish mumkin. Lekin vaqtini ko'p talab qiladi. Kuzatish asosida o'rganilganda esa arzon ya'niki mablag' talab qilmaydi, tabiiy holat bo'ladi. Ammo nazoratsizlik, tizimsizlik hukm surganligi tufayli, ko'p mehnat talab qiladi. Tadqiqot davomida yuqoridagi usullardan foydalangan holda manba yig'ildi. Albatta, hech bir metod butunlay mukammal va kamchiliklardan holi bo'lolmaydi. Biri ikkinchisini to'ldiradi deb aytish mumkin.

Yana bir unutilib ketilayotgan o'yinlardan biri lappar o'yinidir . Ushbu o'yin to'p-tosh, beshtosh, leppar kabi tosh bilan o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Ma'lumki, bolalar o'yinining ayrimlarida ishtirokchilar muayyan narsa-predmetdan foydalanadilar. To'p, suyak, tayoq, yong'oq, olma, tosh shu kabi predmetlar sirasiga kiradi. Shunga ko'ra, o'zbek bolalar o'yinlari ikki guruhga bo'linadi:

- 1) predmetli o'yinlar;
- 2) predmetsiz o'yinlar.

Predmetli o'yinlarda quyidagi narsalar qo'llaniladi. Tosh,"beshtosh" , "Tosh otar", "Choyim-choyim", "Tosh olish", "Lappar", "Jamba"[10] kabi o'yinlar sanalib o'tilgan. Ularning orasida "Lappar ham sanab o'tilib ketilgan

O'yin boshlashdan oldin kaft kattaligidagi, silliq ,yapaloq ikkita tosh topiladi. So'ngra toshlarning biri yerga o'rnatiladi , ikkinchi tosh esa o'n qadam uzoqlikka qo'yiladi .O'n qadam uzoqlikdagi turgan ikkinchi toshni qo'liga olgan bola, nishon sifatida qo'yilgan birinchi toshni urib yiqitishi lozim. Agarda nishon yiqita olmasa, otgan toshi qayerda to'xtagan bo'lsa ,o'sha yerdan o'yin davom etadi. O'yinning shu yerida sinov motivi mavjud. Shu sinovdan o'tishi yoki o'tmasligi

## ILMIY AXBOROT

o'yinning kompozitsion tuzilishiga ta'sir qiladi. Toshni otgan bola cho'kkalab o'tirib olib, toshni shu joydan nishonga tekkizadi. O'ng qo'lini yozib olib toshga tekkizib turadi, chap qo'lining o'rta barmog'i bilan o'ng qo'lining o'rta barmog'ini zarb bilan turtadi. Natijada tosh siljiydi, borib nishonga tegsa-ku, o'yin shu bolada yoxud, shu guruhda qoladi, yo'qsa, o'yin raqib jamoaga o'tib ketadi. Lapar o'yini 100 balli hisob bilan o'Ichangan. Masalan, tik turib otgandayoq nishonga urilsa, 20 ball berilgan. Agar yerga tushib so'ng nishonga urilsa 5 ball berilgan. Tomomlarga bo'linib o'yin o'ynalsa qaysi tomon 100 ballga yetsa o'sha guruh, yoxud yakka holda o'yin o'ynalayotgan qaysi bo'lsa shu bola g'olib deb topilgan.

Leppar o'yinini asosan qiz bolalar o'ynaydilar. Ushbu o'yinni o'ynash uchun maxsus maydon kerak bo'ladi. Maydonga ular chiziq chizadilar. Asfalt bo'lsa melda, tuproqli joy bo'lsa, oddiy tayoqda chiziqlarni tortishadi. O'yin uchun ishtirokchilar soni 5-6 ta bo'lsa yetarli hisoblanadi. O'yinni boshlash uchun ishtirokchilarga tosh kerak bo'ladi. Toshning shakli esa yassi qalingi 5-6 sm atrofida bo'lsa maqsadga muofiq hisoblanadi.

O'yin 11- bosqichdan iborat hisoblanadi. Birinchi bosqichda ishtirokchi toshini "1" raqami joylashgan katakchaga tashlaydi, katak chizig'iga tosh tegib qolsa, yutkazgan hisoblanadi. Tosh katak chizig'ini bosmay tursa o'yin davom etadi. Ishtirokchi barcha kataklarning o'rtasiga qadam bosib, sakrab-sakrab borib qaytishda toshini olib qaytadi. Keyin ikkinchi katakchaga toshni tashlaydi , shunday qilib yo toshi katakchani bosib qolsa, yoki o'zi bosib olsa, sakrayotib muvozanatini saqlay olay yiqlib tushsa, navbat keyingi ishtirokchiga o'tib ketadi. Qayta-qayta o'yinga kirish davomida kim birinchi bo'lib "dom" ga yetib borsa o'sha mutlaq g'olib sanaladi. O'yin yana boshidan boshlanadi. Ushbu o'yinning nomi "Leppar" deyiladi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

Chillak o'yinining kelib chiqishi tarixi chorvachilik bilan bog'liq holda kechadi. Ushbu o'yinni "Chillaktoy" , "Chikilldak" , "Akkol" , "O'n ikki cho'p" kabi nomlanganiga guvoh bo'lamiz. O'yinning nomlanishi raqamlar bilan bog'liq deb aytish mumkin. Chillak o'yini uchun kerak bo'ladigan cho'plar soni ko'p bo'lganligi tufayli shunday nomlangan. Qishning eng souvuq payti, yozning eng issiq payti , chaqaloqlarning tug'ilganidagi dastlabki qirq kun "chilla" deb atalishi barchaga ma'lum. "Chillagurezon" deb nomlanuvchi chilla quvish marosimi ham o'tkazilgan. "Chilla" va "Chillak" atamalari o'rtasida raqamlar bilan bog'lik o'xshashlik , nomlarida ham aks etgan.

O'yinning foydali jihatlari juda ham ko'p deb aytish mumkin. Birinchidan ,bu o'yinlar bolalarning jismoniy jihatdan sog'lom bo'lismeni ta'minlagan. Ikkinchidan, "zuvillash" mashqi bilan ularning nafas yo'llari , ko'krak qafasi a'zolari hamda ovozi yaxshi rivojlangan. Uchinchidan, o'Ichov, sanoq, hisob-kitob borasida bolalarga hayotiy bilimlarini oshirishiga ulkan yordam beradi.

"Lappar" o'yini "Leppar" o'yini har ikkovining bir-biriga o'xshash tomonlari mavjud. Har ikkovi ham tosh bilan o'ynaladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Shuningdek,o'yin uchun tanlangna toshlar ham hajman va shaklan bir xil hisoblanadi. Nomlanishiga nazar solganimizda "Lappar" xalqimiz orasida biror narsani "lappak-lappak" qilmoq, ya'ki ham ingichka, ham yapaloq qilmoq so'ziga yaqinroq.Ushbu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da yapaloq,yassi . Abdulla Qahhor "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasidan quyidagi parcha keltiriladi;" Polvon uchinchi daf'a keltirgan toshlar ichidan lappak, yeti-sakkiz qadoq keladigan bir toshni tanlab oldi-da, yaxshilab artishga va bir tomonini yo'nishga buyurdi.

Tosh bilan o'ynaluvchi ushbu o'yin bolalarni har jihatdan hayotga tayyorlaydi. O'yin davomida ularning ko'z, qulqoq, sezish , eshitish sezgilarini o'tkirlashadi. Aqliy jihatdan hisob kitobga o'rgatib, to'g'ri mo'ljal olish, chama ,reja olish qobiliyatlarini oshiradi. Ko'pchilik bilan muomala qilish qibiliyatlarini shakllantiradi.

**XULOSA**

Bolalar folkloriga oid na'munlarning o'ziga xos qadimiy tarixi mavjud. Ularning ko'pi qadimiy marosimlarga borib taqaladi. O'sha marosimlar o'z ahamiyatini yo'qotgach, bolalar rituallariga ko'chib o'tib, o'z "hayot"ini davom ettirmoqda."Chillak" o'yini qadimda ovchilarning ovga tayyorlov marosimi sifatida o'tkazilgan deb aytish mumkin. "Chillak dastasi"ni nayzaga qiyoslash mumkin."Lapar"o'yini esa qaysidir ma'noda merganlikni, mo'ljalga to'g'ri olishni o'rgatsa o'rgatadi.

Quyundai charx urardik doim to'zonda,  
Chang neligin bilmas edik o'sha mahali,-

—deydi Abdulla Oripov. Shijoat va qiyinchilik oldida esankirab qolmaslik bolalikda o'ynalgan o'yinlar bilan bog'liq deyish mumkin. Bolalarni har tomonlama chiniqtirib, hayotga tayyorlovchi an'anaviy o'yinlar xalqning madaniy boyliklari qatoridadir.

Xalqimizda :"Sen menga do'sting kimligini ayt, men senga kimligingni aytib beraman" degan gap bor. Ushbu hikmatli gapni bolalarga nisbatan aytadigan bo'lsak, sen menga qanday o'yinni yoqtirib o'ynashingni ayt, men senga kim bo'lib yetishishingni aytib beraman deb o'zgartirish mumkin. Hamma zamonda bolalar o'yinga ehtiyoj sezadilar. Ular uchun o'yin hayot omili, o'lchovi va bolalarcha yashash ehtiyoji hamdir.O'yin bu bolalar uchun hayotdir ,folklorshunoslar uchun esa adabiy hodisadir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

163

- 1.Safarova.O'zbek bolalar o'yin folklorining janriy tarkibi,genezisi va badiiy xususiyatlari.
- 2.O.Safarov bolalarni erkalomchi o'zbek xalq qo'shiqlari.Toshkent.Fan,1983
- 3.O.Safarov Bolalar poetik folklori.Toshkent.O'qituvchi,1985,185-bet
- 4.Sh.Turg'unov Namangan bolalalar folklorining janrlar tarkibi va lokal xususiyatlari.diss-2019.38-bet,
- 5.Мельников М.Н.Русский детский фольклор Сибири.-Новосибирск, 1970
- 6.Oxunjon Safarov.O'zbek bolalar folklori.2007
- 7.Sh .Galiyev.O'zbek bolalar o'yin folklori.Toshkent. O'zbekiston fanlar akademiyasi "Fan " nashriyoti.1998.
- 8.Наливкин Э. И Наливкина М. очерки бита женщин оседлого туземного населения. Фергани .Казан, 1886
- 9.Бурзинский Н.Народная поэзия ташкентских сартов. "Средняя азия" Тошкент ,1910.кн.1910 IX-X, с-160-
- 10.Sh .Galiyev.O'zbek bolalar o'yin folklori.Toshkent. O'zbekiston fanlar akademiyasi "Fan " nashriyoti.1998.
- 11.Снесаров Г.П.Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хоразема.М.:Наука, 1969.
- 12.Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi.Toshkent. O'qituvchi,1994,b-246
- 13.Hodi Zarif. O'zbek sovet folklori tarixidan.Toshkent, 1970.
14. Türkiye çocuk oyunları:Derlemeler.Bu Eser Türkiye Cumhuriyeti Kültür Bakanlığı'nın Katkılarıyla Başlamıştır.ANKARA 2002
15. Abdulla Qahhor ko'r ko'zning ochilishi
- 16.K.Mahmudov"O'zbek tanqis taomlari".